



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

YA'QUBI CHARXIY "RISOLAI UNSIYA" ASARIDA USTOZ-
SHOGIRD TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-AXLOQIIY TAHLILI

Zoyirov Erkin Xalilovich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc).
+99893-689-76-31. zoiroverkin76@mail.ru

UDK 1 (091) (5) Charxiy: 304.42

Xalimova Shaxnoza

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
214-23 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ya'qubi Charxiyning tasavvuf pirlarining suhbatlari hamda ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida "Risolai unsiya" risolasidagi ma'lumotlar keltirilgan. Mutasavvifning aslida risoladan yozishdan maqsadi Bahouddin Naqshbandning muridlariga tariqatning odobi, usullari haqidagi suhbatlari hamda ustoz Alouddin Attorning hayot yo'lini yoritishdan iborat bo'lgan. Bahouddin Naqshband Ya'qubi Charxiyga zikr ilmini o'rgatishga ustozlik qilgan bo'lsa, tariqatga kamolotga yetishiga Alouddin Attorning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: ustoz, shogird, unsiya, pir, zikr, ilmi zohir, ilmi botin, til ilmi, qalb ilmi, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy.

СОЦИАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ УЧИТЕЛЬ-
УЧЕНИК В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЯКУБИ ЧАРХИ «РИСОЛАЙ УНСИЯ»

Аннотация: В данной статье представлены сведения из брошюры Якуби Чархи «Рисалай унсия» о беседах суфийских пиров и отношениях учитель-ученик. На самом деле целью мистика при написании трактата было пролить свет на мюридов Бахауддина Накиббанда о нравах и методах тариката и жизненном пути его учителя Алауддина Аттарра. Если Бахауддин Накиббанд Якуби был наставником Чархи в обучении науке зикра, то роль Алауддина Аттарра в развитии тариката несравнима.

Ключевые слова: учитель, ученик, унсия, пир, зикр, захирическое (внешнее) знание, ботинических (внутренних), учения языка, познания души, числовое (ададий) знание, душевное (qalbiiy) знание.

SOCIO-ETHICAL ANALYSIS OF THE TEACHER-STUDENT CONCEPT IN
THE WORK OF YAKUBI CHARKHI "RISOLAI UNSIA"





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Annotation: *This article presents information from Yakubi Charkhi's brochure "Risalai unsiya" about the conversations of Sufi feasts and teacher-student relationships. In fact, the goal of the mystic when writing a treatise was to shed light on the murids of Bahauddin Naqshband about the customs and methods of the tariqa and the life path of his teacher Alauddin Attar. If Bahauddin Naqshband Yakubi was Charkhi's mentor in teaching the science of dhikr, then the role of Alauddin Attar in the development of the tariqa is incomparable.*

Key words: *teacher, student, unsiya, feast, dhikr, zahiric (external) knowledge, botinic (internal), teachings of the language, knowledge of the soul, numerical (adadiy) knowledge, spiritual (qalbiy) knowledge.*

KIRISH

Har bir inson tabiatiga ko'ra o'z ehtiyojlarini qondirish va kamol topishi uchun juda ko'p narsalarga, ya'ni kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kitoblar, ustozlarga, do'stlarga ehtiyoji bo'ladi. Inson barcha zarur narsalarni bir o'zi hosil qila olmaydi, ularni topish uchun turli kasbdagi odamlarning xizmatiga muhtojlik sezadi.

Tasavvuf ta'limotida ustoz shogirdlik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun tasavvufdagi "maxdum", "mustamliy", "robita", "uvaysiylik", tushunchalarida so'fiylar o'rtasidagi ustoz shogirdlik munosabatlari berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ya'qubi Charxiy tasavvuf pirlarining suhbatlari hamda ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida "Risalai unsiya" ("Do'stona suhbat") risolasida ma'lumot bergan. Bizning fikrimizcha, risolani nomlanishida mutasavvifning so'z boshida keltirilgan quyidagi fikrlari sabab bo'lgan: "Tokim, bundan bu ro'zg'or uchun foydalar yetsin va as'hob uchun uns (do'stona suhbat) ga sabab bo'lsin". Tadqiqotchi M.Razzoqovanning fikricha, risolaning ikkinchi nomi "Risola dar siyrati mustafaviya va tariqai mustaqimiya" ("Mustafoga xos xulq-atvor va to'g'ri yo'l haqida risola") deb nomlanadi. "Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi" da ham № 9351/IV raqam bilan shu risola berilgan.

Mutasavvif risolaga aynan bu nomni bermagan. Ammo risolaning muqadimmasidagi quyidagi so'z orqali kitob nomiga aylanib qolgan bo'lishi mumkin: "bu banda faqiru haqir Ya'qub ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy (jiddu jahdi maqtovga loyiq bo'lsin) hazrat maxdum, islom va musulmonlar shayxi, ikki olamda mashoyix va valiyalar qutbi Xoja Baho-ul Haqqi vad diyn al-Buxoriy Naqshbanddan (unga Allohning rahmati bo'lsin) yetgan mustafaviy siyrat va mustaqim tariqatning iforini kitobat qilmoqni xohladi". Ya'qubi Charxiyning aslida risoladan yozishdan maqsadi Bahouddin Naqshbandning muridlariga tariqatning odobi, usullari haqidagi suhbatlari hamda ustози Alouddin Attorning hayot yo'lini yoritishdan iborat bo'lgan. Demak, risolalarning bunday nomlanishi alohida kitoblar mavjud degan noto'g'ri xulosani keltirib chiqargan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bahouddin Naqshband Ya'qubi Charxiyga zikr ilmini o'rgatishga ustozlik qilgan bo'lsa, tariqatga kamolotga yetishiga Alouddin Attorning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Ya'qubi Charxiy bu ikki ulug' inson orasida ustoz shogirdlik munosabati kuchli muhabbat va sadoqatga asoslangan. Ustozlarini bu o'gitini amal qilgan mutasavvif kibr, manmanlik, xudbinlik kabi shaytoniy illatlarga qarshi kurashib, nafslarini tarbiyalab kamtarin ulug' inson bo'lib kamol topadi.

Mutasavvif asarda Buxoroga kelishi, ustози (Bahouddin Naqshband) bilan suhbat, undan zohiriy va botiniy ilmlarni o'rganganligini bayon qiladi.

Ba'zi tariqatlarda pining xizmatini qilish baraka beradi deb, muridlar uzoq muddat ustozlarining xizmatida bo'lishgan. Bahouddin Naqshband esa barakani faqat Alloh beradi deb, shogirdlarni Haq yo'liga kiritib, halol mehnat qilishga chorlagan.

Ya'qubiy Charxiy risolada bu haqda quyidagi fikrni keltirgan: "Qachonki, bu faqirda illatsiz inoyat bilan talab da'vosi paydo bo'lgach, ilohiy fazl meni u hazrat tomonga tortdi. Buxoroda u zotga mulozamat qildim. Men umumiy karam yuzasidan ularning iltifotiga sazovor bo'lar edim va samadiy hidoyat bilan aniq bilindiki, u zot avliyouллоhning xoslaridan va komilu mukammallaridan ekanlar. Ko'plab g'aybiy ishoralar va voqealardan so'ng bir kuni Qur'oni karimni o'qib turib, ushbu oyat chiqdi: *أولئك الذين هدى الله فبهداهم اقتده* "Ana o'shalar Alloh hidoyat qilgan zotlardir. Bas, ularning hidoyatiga ergash" (An'om: 90.).

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Abdulxoliq G'ijduvoniyning ruhlari Alloh izni bilan Muhammad Boboyi Samosiy vafotidan keyin Bahouddin Naqshbandga ustozlik qilgan. Chunki, Bahouddin Naqshband uvaysiylik uslubi bilan Xojai Jahondan ta'lim olish vaqtda Xoja Muhammad Samosiy ruhi ham bo'lgan. Ya'qubi Charxiy "Unsiya" asarida Bahouddin Naqshbandning o'ndan ortiq o'gitlarini keltiradi. Risolalardagi ba'zi g'oyalar takror bo'lsada umumiy hisobda 230 dan ortiq ustozining aytgan so'zlarini manbalarda uchratdik.

"Bu faqirning (Buxorodagi) oxirgi kunlari Fathobodda edi. (Bir kuni) Sayfuddin Boxarziy (Unga Allohning rahmati bo'lsin) mozoriga mutavajjih bo'lib o'tirgan edim, nogoh ilohiy qabul paykoni kelib tegdi. Beqaror bo'lib, u hazratning yonlariga bormoqqa qasd qildim. Ko'shki Hinduvon qishlog'iga yetganimda, u zotni yo'l boshida menga intizor bo'lib turgan holda topdim. Ochiq yuz bilan ko'rishdilar. Shom namozidan so'ng (men bilan) suhbat qurdilar. Meni u kishining haybatlari bosdi va menda bir so'z deyishga majol yo'q edi."

Ya'qubi Charxiy Bahouddin Naqshbandning sinovidan o'tib, muridlikka qabul qilinib, tariqat bo'yicha "Vuqufi adadiy" vazifasi bilan shug'ullanadi. "Xojamiz bomdod namozini o'qib bo'lganlaridan so'ng: "Muborak bo'lsin, qabul qilinganingizga ishorat bo'ldi! Biz hammani ham darrov qabul qilavermaymiz. Qachonki vaqti kelsagina qabul qilamiz", deb silsilani Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniygacha (Unga Allohning rahmati bo'lsin) bayon qilib berdilar. Bu faqirni vuqufi adadiyga mashg'ul qilib, "Xoja





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Abdulkoliqqa yetgan ilmi laduniyning birinchi sabog‘i shu”, dedilar. Buning boshlanishi shunday bo‘lgan ekan: Xoja Abdulkoliq (yoshlik yillarida) bir ulug‘ning oldida tafsir ilmidan saboq o‘qir edilar.

Tafsir دعواری بکمتضرعاً وخفیةإنهالایحبالمعتدیناً “Robbingizga tazarru’ va maxfiy duo qiling. Zotan, U haddan oshuvchilarni sevmas” (A’rof: 55.). oyatiga yetgach, ustozlaridan so‘radilarki, “Haq subhonahu va ta’olo bandalariga buyurayotgan maxfiy duo qaysidir?”. Ustozlari aytdiki, “Agar Haq subhonahu iroda qilsa, uni senga yetkazgay”. Shundan so‘ng Haq subhonahuning bandalaridan biri Xoja Abdulkoliqning yonlariga kelib, bu saboqni o‘rgatdi: زادها لله علماً وحكمة Alloh unga ilm va hikmatni ziyoda qilsin. Demak, Ya’qubi Charxiy fikricha, Bahouddin Naqshband ilk saboqlarini Muhammad Boboyi Samosiydan olayotgan vaqtda Alloh tomonidan yuborilgan bir aziz ustozning ta’limini olib, o‘gitlariga amal qilib, jahonshumul Naqshbandiya kamolot yo‘liga asos solganlar.

Mutasavvif risolada ustozining vasiyatini keltiradi: “Buxorodan safar qilishga o‘zlari ijozat bergunlariga qadar hazrat (Bahouddin Naqshband)ning mulozamatlarida bo‘ldim. Xayrlashib: “Bizdan senga nimaiki yetgan bo‘lsa, ularni Alloh ta’oloning bandalariga yetkaz. Tokim, bu ularning saodatiga sabab bo‘lsin” – degan vasiyatdan so‘ng uch bor “Seni Allohga topshirdim” deb aytdilar. Bu topshirishdan umid katta bo‘lib, zero, hadisda إذا استودع حفظه “Albatta, Alloh ta’olo o‘ziga topshirilgan narsani asraydi” deyilgan.”

Demak, Bahouddin Naqshband Ya’qubi Charxiyni muridlikka qabul qilib tariqatning zohiriy va botiniy ilmlarni o‘rgatadi. Ya’qubi Charxiy vataniga ketayotganida ustozining: “Bizdan nimaniki eshitgan bo‘lsang, hammasini Xudoning xalqiga yetkaz” deganlarini inobatga olib, yonidagilarga suhbat bilan uzoqdagilarga esa kitob bilan yetkazganini ta’kidlaydi.

Mutasavvif risolani yozishdan maqsadi ustozining ko‘rsatmasi asosida ekanligini keltiradi: “U kishining (Alouddin Attor) ham suhbatlaridan mahrum bo‘lganimdan so‘ng hazrat xojamizning (Bahouddin Naqshband) “Bizdan olganlaringni boshqalarga ham yetkaz”, degan oliy amrlari bo‘lgani uchun, garchand faqir bunga o‘zimni loyiq deb bilmasamda, hozirlarga xitob tarzida g‘oyiblariga kitob tarzida baqadri hol yetkazmoqchiman. Chunki, u zotning ishoralari behikmat bo‘lmaganiga ishonaman.

تو چشم شیخ را دیدن میاموز
فلک را راست گردیدن میامو

Tarjimasi:

Sen cholning ko‘zidan ko‘rishni o‘rganma,
Falakdan to‘g‘ri aylanishni o‘rganma.

Mutasavvif ustoz vafotida Buxoroga bo‘lmagan. “Buxorodan chiqilgandan so‘ng Kesh shahriga borildi. Ancha paytlar o‘sha joyda istiqomat qilib yurilgan edi, bu faqirga u hazratning vafot etganlarining xabari yetib keldi. Xotir mahzun va majruh bo‘ldi.”

Keyinchalik Ya’qubi Charxiy Bahouddin Naqshbanddan uvaysiylik uslubi bilan ham tahsil oladi. “Men ularning (Bahouddin Naqshband) muqaddas ruhlaridan doimo foyda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

olardim” – deb tariqat yo‘lida doimiy tahoratda bo‘lish, “vuqufi qalbiyga” amal qilib, doimo zikr qilib, nafl namozlariga amal qilishni ta’kidlaydi.

Mutasavvif Bahouddin Naqshband vafotidan keyin Alouddin Attorga murid bo‘ladi. “Menga Buxorodan chiqishga ruxsat berilgandan so‘ng Xoja Alouddin Attorning (Alloh u zotni rahmatiga olsin) oldiga yubordilar. Ishorat bilan unga ergashishimni buyurdilar. Shu topshiriqqa binoan necha yillar pirimizning ham xizmatlarida bo‘ldim. Alouddin Attorning lufu karami barchaga, xususan bu faqirga benihoya edi.”

Ya‘qubi Charxiy “Unsiya” da Bahouddin Naqshbandning quyidagi ilk nasihatini keltiradi: “Pirimiz (Bahouddin Naqshband) ning buyurgan ishlaridan birinchisi bu doimiy tahorat bilan yurmoqlik bo‘lsa, ikkinchisi vuqufi adadiy va vuqufi qalbiy zikri bilan bo‘lmoqlikdir. Uchinchisi esa, har bomdod namozidan oldin hamda har shom namozidan keyin botin darsidan saboq olishga mashg‘ul bo‘lishdir. Yana biri esa sharaflı vaqtlarda nafl namozlariga ishora qilgan edilar. Demak, mutasavvif ustozining o‘rgatgan ilmini sharhlab solik o‘zini pok tutib, doimiy tahoratda bo‘lishini ta’kidlagan. Ya‘qubi Charxiyning fikricha, murid zohiriy tahorat bilan birga botiniy tahoratni, ya‘ni qalb tozaligiga ham rioya qilishi kerak.

Demak, “shariat zohir tahorati, tariqat botin tahorati” ekan yoki shariat misli tana, tariqat misli qalb bo‘ladigan bo‘lsa, unda tariqat hodisalari dunyosidan abadiyat dunyosiga qarab ko‘chishdir. Agar solik shariatga suyanib, tariqat orqali fano maqomidan baqo martabasiga yetsa, uni tariqat yo‘lidan borib, haqiqatga erishgan hisoblanadi. Shariat – qatıy intizom, avomga ham, xosga ham birday tegishli. “Shariat – nafas olish yo‘lidir, tariqat – ko‘ngil yo‘li va haqiqat – ruh yo‘li.” Abul Qosim Kushayriy bu hodisani “lozim va malzum”, ya‘ni biri ikkinchisi uchun lozim degan ibora bilan ifodalagan.

Ya‘qubi Charxiy ustozı (Bahouddin Naqshband)ning oliy himmat bo‘lish haqidagi fikrlarini ham keltiradi. “Yana aytar edilar: “Biz nimaiki topgan bo‘lsak, oliyhimmatlikdan topdik”.

Mutasavvif tomonidan ilgari surilgan halollik va oliy himmatlılik haqidagi fikrlar hozirgi yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etishda, yoshlarni ilmi, ma‘rifatlı qilib tarbiyalash hamda halol rizq topishga muhim ahamiyatga ega.

Ya‘qubi Charxiyning “Risolai unsiya” asari naqshbandiya yo‘lida muridlar amal qilishi lozim bo‘lgan yo‘lnı o‘rganishda, bu tariqatning qoidalarini tadqiq qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Tariqat pirlari muridlarning ruhiy holatidan doimo xabardor bo‘lgan. Bu haqda “Unsiya” da Alouddin Attor bilan Ya‘qubi Charxiy o‘rtasidagi munosabat keltiriladi: “Xoja Alouddin Attor (Alloh uni rahmatiga olsin) bir kuni mening oldimga chiqib keldilar. Men hazin holda edim. So‘radilar: “Nega g‘amgingan?” Men dedim: “Negaligi o‘zlariga ayondir”. So‘radilar: “Bu she‘rning ma‘nosi nima:

ما ذات نهاده در صفاتیم همه

موصوف صفت سخره ذاتیم همه





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

تا در صفتيم جمله ماتيم همه
چون رفت صفت عين حياتيم همه

Mo zot nihoda dar sifotem hama,
Mavsufi sifat, saxrai zotem hama.
To dar sifatem – jumlamotemhama,
Chun raft sifat – ayni hayotem hama.

Tarjimasi:

Biz bir zotmizu ham sohib sifotmizdir hama,
Sifot birla masxara bo'lgan zotdirmiz hama.
Sifatlarla ekanmiz demak motdirmiz hama,
Sifat ketgachgina ayni hayotdirmiz hama.

Ya'qubi Charxiyning qarashlari ustoz Bahouddin Naqshbandning ta'limoti bilan umumiyliigi bor. Bahouddin Naqshband fikricha: "Murshid (pir) har kuni tolibning holidan xabardor bo'lishi, farosati yoki so'rab-surishtirishi orqali tolibning ahvolini bilib turishi zarur". Boshqa joyda esa aytadi: "Men o'zgalar ahvoliga tasarruf qiluvchiman, xohlasam birovga hol bera olaman, xohlasam undan olib qo'yaman."

Demak, pir valiylik suvi bilan murid vujudidagi kirlarni va u tomonga keyinroq ilashadigan chirkinliklarni poklashi kerak. Qur'oni karimda "faqat pokiza bo'lganlar qo'lga ola bilganidek" (Voqea, 79), ma'nau nopoklar ham ilohiy sirlarga yaqinlasha olmaydilar. Shuning uchun ustoz shogirdiga qalbiy ilmlarni o'rgatishi, ana shunday kirlardan poklantirishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi

XULOSA

- Ya'qubi Charxiy fikricha, shayxlar muridlariga shariat asoslarini puxta o'rgatgandan so'ng, tariqat ilmlarini o'rgatgan. Ya'ni, tasavvuf shayxlari shariat hamda qalblarning himoyachilaridir. Chunki, pining vujudida Payg'ambar (s.a.v.) norizo bo'ladigan sabab yo'q bo'lgan zotdir... U pokiza axloq uchun oina bo'lgan kishidir;
- Mutasavvif ustozni g'assolga muridni jonsiz vujudga o'xshatadi. Murid pining huzuridagi holati g'assol oldida turgandek bo'lib, istalgan tomonga aylantirilishi mumkin;
- Ya'qubi Charxiy qarashlarida inson o'zini anglagandan so'ng ustozlar o'rgatgan shariat ilmlarini egallab, Xudodan qanaqa ne'mat bo'lsa, o'sha bilan yashashi lozim. Bu fikr bilan insonni haqiqiy inson bo'lib shakllanishida uning jamiyat orasida bo'lishi va yaxshi insonlar bilan suhbat qilishini ahamiyati katta ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni, pir bilan suhbat orqali murid Allohga olib boradigan yo'lga chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zoirov, E. H. (2021). Questions of ontology of nature in the teachings of mahdumi azam. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 91-94.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2. Зоиров, Э. Х. (2022). Ориф Ревгарий-второй пир Бухоро-ишариф. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований", (50), 48-51.
3. Зоиров, Э. Х. (2022, December). ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХДУМИ АЪЗАМА. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 4, pp. 121-131).
4. Наврӯзова, Г., & Зоиров, Э. (2018). Бухорои Шарифнинг етти пири. Тошкент: Мухаррир, 80. 33. ЗОИРОВ, Э. Х. НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХДУМИ АЪЗАМА. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований, 20, 29-32
5. Зоиров, Э. Х. (2021). Вопросы онтологии природы в учении Махдуми Азама. Академия: международный междисциплинарный исследовательский журнал, 11(5), 91.
6. Наврӯзова, Г., Зоиров, Э. Х., & Юнусова, Г. (2006). Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 56.
7. Зоиров, Э. (2015). Махдуми Аъзамнинг фалсафий ва ижтимоий сиёсий қарашлари. Т. Turon zamin ziyo.
8. ЗОИРОВ, Э. Х. История, археология, религиоведение. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 48.
9. Нурматова, Н. У. (2017). Применение мультимедийных технологий в образовательных учреждениях. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (6), 25-27.
10. Ахмеджанов, М. М., & Нурматова, Н. У. (2017). Роль воспитания молодежи в духе толерантности в процессе глобализации. *Молодой ученый*, (7), 421-422.
11. Ахмеджанов, М. М., & Нурматова, Н. У. (2016). Farabi-first philosopher in his times. *Молодой ученый*, (2), 943-944.
12. Мурадов, С. А. Современные методы философии и их значение в развитии мышления человека. *Актуальные исследования*, 51(17), 273-276.
13. Murodov, S. A. (2022). Relationship between the universe and man in the works of Fariduddin Attor. In *International conference: problems and scientific solutions* (Vol. 1, No. 6, pp. 35-41).
14. Муродов, С. А. (2009). Ибн Сино, Аттот ва Навоий асарларида қушлар тимсоли. *Имом ал-Бухорий сабоқлари», Маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. Тошкент*, 273-276.
15. Мурадов, С. А. кизи Касимова, ФФ (2022, December). ФИЛОСОФИЯ ДИЗАЙНА: ОСОБЕННОСТИ И СУЩНОСТЬ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS* (Vol. 1, No. 7, pp. 51-59).
16. Санжар, М. (2020). Взгляды Фаридуддина Аттотара на бытие. *Международный журнал прикладных исследований. ИДЖАР*, 6(6), 34-36.
17. МУРАДОВ, С. А. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАРИДУДДИНА АТТОРА. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый, 51, 529-531.
18. Мурадов, С. А. (2023). ФАРИДУДДИН АТТОР-ВЕЛИКИЙ ШЕЙХ ВОСТОКА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 149-160).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

19. Muradov, S. A. (2023). THE MAIN IDEAS OF THE FOUNDER OF THE GERMAN SCHOOL OF PHILOSOPHY. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 588-594.

20. Sanjar, M. (2020). The views of Fariduddin Attar on being. *International journal of applied research. IJAR*, 6(6), 34-36.

21. Sanjar, M. One of the Factors of Purity of the Heart is Futuwat. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 98-101.

22. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Перспективы использования технологии сотрудничества в процессе подготовки педагога профессионального образования. *Молодой ученый*, (12), 839-841.

23. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Психологические основы педагогического проектирования. *Молодой ученый*, (12), 837-839.

24. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2015). Социально-психологические факторы формирования модели педагога в современном образовательном процессе. *Молодой ученый*, (2), 504-506.

25. Алимова, М. М. (2023). «РАСКРЕПОЩЕНИЕ» ЖЕНЩИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (1920-1930 г. г). *Innovative Development in Educational Activities*, 2(8), 535-541.

26. Алимова, М. М., & Гариев, А. (2023). ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ КОРРУПЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 261-270

27. Хайтматова, Н., & Алимова, М. (2023). Вопросы равенства, прав и свобод женщин в Узбекистане. *Научные работы одарённой молодёжи и медицина XXI века*, 1(1), 369-369.

28. Алимова, М. М. (2023). ИСТОРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *SCHOLAR*, 1(28), 113-129

29. Алимова, М. М. (2023). РОЛЬ ГРАЖДАНСКИХ ИНСТИТУТОВ В ФОРМИРОВАНИИ НЕТЕРПИМОСТИ КОРРУПЦИИ У ГРАЖДАН УЗБЕКИСТАНА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 253-264.


30. Алимова, М. М., & Абдусаттаров, С. Ш. (2020). ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА-ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА* (pp. 13-16

31. Вахидова, М. Т. (2022). ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 82-90.

32. Вахидова, М. Т., & Мирзаев, У. Т. (2022, December). ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 52-62).

33. Vohidova, M. (2023). SOCIAL AND ETHICAL ASPECTS OF THE EXISTENCE OF TOLERANCE IN YOUNG PEOPLE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 559-566.

34. Яъкуби ибн Усмон ибн Махмуд ал-Газнавий ал-Чархий. Рисолаи унсия. ЎзРФА ШИ хазинаси, инн. № 5825/ Яъкуби Чархий. Рисолаи унсия. – Б. 5.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

35. Раззокова М. Мавлоно Яъкуби Чархий. – Т.: Muharrir, 2013. – Б. 34.
36. Шамсуддин Бобохонов., Абдулазиз Мансур. Нақшбандия тариқатиға оид қўлғезмалар фихристи. -Т.: Мавороуннахр. 1993. – Б. 18.
37. Khalilovich, Z. E., & Orifovich, D. G. (2020). ANALYSIS OF THE TEACHINGS OF MAHDUMI AZAM AND CLASSIFICATION OF PAMPHLETS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(4), 4-4.
38. Нурматова, Н. У. (2022). Юсуф Ҳамадоний ва хожагон-нақшбандия таълимотининг “назар бар қадам” рашҳаси. *Zamonaviy oliy ta’lim: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya. Navoiy*, 30-31.
39. Djuraev, A., Sayitkulov, S., Kholmiraev, J., Rakhmonov, I., & Nurmatova, N. (2023, June). Cotton increase the efficiency of cleaning as a result of improving the unit for cleaning small and large wastes. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
40. Нурматова, Н., & Сафоев, Н. (2023). ШКОЛА СУФИЗМА ЮСУФА ХАМАДОНИ В БУХАРЕ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15).
41. Нурматова, Н. У. (2023). ЮСУФ ХАМАДОНИЙ ТОМОНИДАН ХОЖАГОН ТАЪЛИМОТИГА КИРИТИЛГАН БИРИНЧИ РАШҲА. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 565-576.
42. Nurmatova, N. U. (2019). THE WORK “MAQOMOTI YUSUF HAMADONIY” BY ABDULKHOLIK GHIJDUVONIY–A SAMPLE OF RESPECT TO THE MASTER”. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), 210-218.
43. UMAROVNA, N. N. Four basis analysis of human perfection in the work of Yusuf Khamadani, Odobi tariqat. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(4), 1-3.
44. Nurmatova, N. U. Logical analysis of Abdulkhaliq Gijduvani’s work “Maqomoti Yusuf Hamadoni”/ISSN (Online): 2455-3662 EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal. *Volume*, 7, 417-420.
45. Kakhramonovna, K. S. (2024). THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(3), 84-102.
46. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. *Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.–India*, 10(4), 360-364.
47. Shodiev, J. J. (2020). Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. *International engineering journal for research & development.-India*, 5(3), 143-148.
48. Шодиев, Ж. Ж. Interpretation of the image of may in the ruba of Umar Khayyam. *Monografia pokonferencyjna science, research, development*, 33, 2020-30.
49. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём фалсафий қарашларида инсон тақдири ва эркин ирода масаласи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 2, 197-204.
50. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг асосий асарлари ва рубойларининг тузилиши, мазмуни ва таҳлили. *Илм Сарчашмалари.-Урганч*, 10, 44-47.
51. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём рубойларининг талқин ва тавсифи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 9, 206-210.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

52. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. Фалсафа ва ҳуқуқ.—Тошкент, 3, 107-110.
53. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. Imam al-Bukhari IBS Journal, 2.
54. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида—комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. Scientific Bulletin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi—2022-yil_4-сон, 229.
55. Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).
56. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 206-211.
57. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
58. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.
59. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVIY SALOHİYAT. Журнал истории и общества, (2)
60. SHODIEV, J. (2021). SOCIO-POLITICAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE PERIOD OF UMAR KHAYAM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
61. Shodiyev, J. (2021). O'ZBEKISTONDA IJTIMOİY-SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATI. Academic research in educational sciences, 2(2), 409-416.
62. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 197-202.
63. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.
64. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
65. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
66. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
67. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.
68. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

69. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).
70. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. GOLDEN BRAIN 1 (24), 59-67.
71. Jo'raqulovich, S. J. (2023). О 'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.
72. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "MA'MUN SCIENCE", 1(2).
73. Shodiyev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. SCHOLAR, 1(28), 252-257.
74. Shodiyev, J. J. R. (2023). INSON-BU DUNYO FARZANDI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 357-369.
75. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 126.
76. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 17-17.
77. Jurakulovich, S. J. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 307-311.
78. Jurakulovich, S. J. (2024). GLORIFYING MAN AND INCREASING HIS VALUE IS THE MAIN GOAL OF THE THIRD RENAISSANCE. INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563 2024: 7,805 eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 11, issue 11 (2024). Pp. 389-394.
79. Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси.– Т.: “Фан”, 2021. – Б. 41.

